



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 29-aprel

VII-9-52-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

### **Kattaqo'rg'on tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatlaigi markazi tomonidan 2024-yilda amalga oshirgan ishlari hamda kelgusida amalga oshiriladigan vazifalar to'g'risida**

Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida Qonuni ijrosini ta'minlash, shuningdek, tuman Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi boshlig'i U.Sag'dullayevning "Kattaqo'rg'on tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatlaigi markazi tomonidan 2024-yilda amalga oshirgan ishlari hamda kelgusida amalga oshiriladigan vazifalar to'g'risida"gi hisobotini muhokama qilib, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining yettinchi chaqiriq, to'qqizinch sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Kattaqo'rg'on tumanı Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi boshlig'i U.Sag'dullayevning "Kattaqo'rg'on tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi markazi tomonidan 2024-yilda amalga oshirgan ishlari hamda kelgusida amalga oshiriladigan vazifalar to'g'risida"gi hisoboti tanqidiy jihatdan muhokamalar natijasiga ko'ra qabul qilinmagan deb hisoblansin.

2. Xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi boshlig'i U.Sag'dullayevning 2024-yilda amalga oshirgan ishlari hamda kelgusida amalga oshiriladigan vazifalar to'g'risidagi hisobotini doimiy komissiya yig'ilishlarida qayta ko'rib chiqib, tuman Kengashining navbatdagi sessiyalari muhokamasiga kiritish choralarini ko'rsin.

3. Tuman hokimi o'rinos (O.Shirinov) va tuman maktabgacha va maktab ta'lifi bo'limi (Sh.Sultonov)lar Kattaqo'rg'on tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo'limi (U.Sag'dullayev)ga:

-hududning sanitariya-epidemiologik holatini yaxshilashga va tozaligini saqlashga, aholining sanitariya madaniyatini darajasini oshirish yuzasidan tegishli tashviqot va targ'ibot ishlarini olib borsin.

-tumandagi umumiy o‘rta ta’lim maktabi hududidagi savdo do‘konlarida yuqori konsentratsiyalangan energetik ichimliklar sotilishini tartibga olish;

-yuqori konsentratsiyalangan energetik ichimliklar yoshlar salomatligiga zararli ta’siri to‘g‘risida targ‘ibot tadbirlari olib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimi birinchi o‘rinbosari N.Jo‘lmatov, Kattaqo‘rg‘on tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi (U.Sag‘dullayev), tumandagi dehqon bozorlariga:

-Tozalik va gigiyena talablariga javob beradigan savdo rastalarini yaratish;

-Sotuvchilar uchun sanitariya va gigiyena qoidalari bo‘yicha muntazam o‘quv seminarlarini tashkil etish;

-Tumandagi dehqon bozorlari sog‘lom chiqindilarni to‘plash, ajratish va muntazam ravishda olib chiqish tizimini yo‘lga qo‘yish vazifalari yuklatilsin.

5. Kattaqo‘rg‘on tumani sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi (U.Sag‘dullayev)ga xalq deputatlari tuman kengashining navbatdagi sessiya muhokamasida mazkur qaror bilan belgilangan vazifalar ijrosi to‘g‘risida hisobotida aks ettirish vazifasi yuklatilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (D.Mirzaxonova) hamda tuman hokimi o‘rinbosarlari (N.Jo‘lmatov, O.Shirinov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH